

“Alfraganus university” NTM dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Xalilov Sirojiddin Sherali o‘g‘li taqrizi ostida

Narzullayeva Charos Qahhorovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti
(+998) 91 443 87 12

YANGI O‘ZBEKISTONDA TURIZM SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR SAMARASI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada 2017-yildan bugunga qadar O‘zbekiston Respublikasida turizm rivojidagi ishlar, ichki va tashqi turizm salohiyatini yuksaltirish maqsadida olib borilayotgan ishlar samaradorligi, xorijiy turistlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ichki turizmda mamlakat aholisiga yaratilayotgan keng imkoniyatlar natijasi va xalqaro reytinglarda O‘zbekiston hamda uning turizmbop shaharlarining e’tirof etilishiga doir o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR: “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, vizasiz kirish, elektron kirish vizasi, “O‘zbekiston havo yo‘llari” davlat korxonasi, Xalqaro turizm yarmarkasi, “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i”, “Turizm ovuli”, xorijiy turistlar, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi, Samarqand shahri.

ABSTRACT: In this article, the development of tourism in the Republic of Uzbekistan from 2017 to today, the effectiveness of the work carried out to increase the potential of domestic and foreign tourism, the opportunities created for foreign tourists, the results of the wide opportunities created for the population of the country in domestic tourism, and the results of Uzbekistan and its information on changes in the recognition of tourism cities is provided.

KEY WORDS: “Uzbekistan – 2030” strategy, visa-free entry, electronic entry visa, state enterprise “Uzbekistan Airways”, International Tourism Fair, “Tourism Neighborhood”, “Tourism Village” and “Tourism Farm”, foreign tourists, “Travel around Uzbekistan!” program, Samarkand city.

KIRISH: O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalar va go‘zal tabiati bilan, turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadigan davlatlar qatoriga kiradi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish vazifasi qo‘yilgan.

2017-yildan bugunga qadar O‘zbekistonda prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida turizm sohasida yirik islohotlar olib borilmoqda. O‘tgan 6 yil mobaynida turizm rivojida katta natijalarga erishildi

Ayni paytda 93 xorijiy davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish, 56 davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 davlat uchun besh kunlik tranzit vizasiz kirish, shuningdek, 76 davlat uchun turistik viza berishning yengillashtirilgan tartibi belgilandi¹. Bundan avvalroq 2020-yili 1-yanvardan O‘zbekistonda 86 davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish tartibini joriy etgan. Yakka tartibdagi xorijiy sayyohlar uchun kirish vizalarini rasmiylashtirish – 40 dollarga teng. Guruh turistik vizasi 5 kishini tashkil qilgan edi. 2018-yili 15-avgustdan O‘zbekistonda turistik maqsadlarda bo‘lish uchun elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va berish tizimi joriy etilgan².

¹ O‘zbekistonda turizm sohasi 2017–2023 yillarda: islohotlar qanday natijalarga olib keldi? 16.10.2023.

<https://kun.uz/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F10%2F16%2Fozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi>

² O‘zbekistonda turizm. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_turizm

55 yoshga to'lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatga O'zbekistonga keluvchi Xitoy, AQSh va Vyetnam fuqarolari uchun vizasiz kirish rejimi joriy qilindi³.

O'zbekiston bo'ylab sayohatlarning aksariyati mamlakat poytaxti Toshkentga kirishdan boshlanadi.

Shaharda "O'zbekiston havo yo'llari" davlat korxonasi zamonaviy Islom Karimov xalqaro aeroporti mavjud. Aeroport "Aeroflot", "UTair", "S7 Airlines", "Lufthansa", "Rossiya", "Asiana Airlines", "Arkia Israel Airlines", "Turkish Airlines", "Korean Air", "Air Astana" va boshqa aviakompaniyalardan samolyotlarni qabul qiladi⁴. Shaharda shuningdek, mahalliy yo'nalishlar uchun aeroport, ikkita poezd stansiyasi va ko'plab avtovokzallar mavjud. O'zbekistondagi bir qator boshqa aeroportlar xalqaro maqomga ega (Andijon, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Urganch, Farg'ona, Namangan, Termiz, Qarshi, Nukus).

Bundan tashqari, "Vatandosh", "Student visa", "Academic visa", "Medical visa" va "Pilgrim visa"⁵ kabi yangi kirish viza turlari belgilandi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR: O'zbekistonning turistik qiziqishlari doirasiga faol dam olish va sport turizmi, masalan, qoyaga ko'tarilish va chang'i sporti, ta'lim maqsadlarida sayohatlar hamda tez rivojlanayotgan tibbiy turizm ham kiradi.

O'zbekistonga kelayotgan sayyohlar soni yil sayin ortib bormoqda: 2005-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni dunyoning 117 davlatidan 240 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda O'zbekistonga 2,5 milliondan ortiq (2,7 mln nafar) sayyoh tashrif buyurgan. 2018-yilda sayyohlar soni 5,3 million kishini tashkil etgan, shundan 5 millioni MDH davlatlaridan, 325 ming nafari uzoq xorijdan kelgan⁶. Boshqa manbaga ko'ra, 2022-yilda 5,2 mln, 2023-yilning o'tgan 9 oyida 4,3 mln ni tashkil etgan⁷. Har yili kuzda O'zbekistonda Xalqaro turizm yarmarkasi o'tkaziladi. Sayyohlar soni 2023-yilda Yaponiyadan – 5 barobar, Hindiston va Italiyadan – 3,5 barobar, AQShdan – 2 barobarga ortdi⁸.

O'zbekistonga 2023-yilda kelgan xorijiy turistlarning 80,7 foizi qo'shni davlatlar, 11,5 foizi qolgan MDH davlatlari hamda 7,8 foizi boshqa davlatlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga, turistlarning o'rtacha qolishi 4-5 kunni tashkil etib, 2022 yilga (3 kun) nisbatan 1,5 baravarga ortdi⁹. Bu esa mamlakatda turistlarga har tomonlama qulaylik yaratilganligining natijasidir.

³ O'zbekistonga kelgan sayyoh sarflayotgan o'rtacha mablag' 330 dollarga yetgan. 22.10.2023.

<https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekistonga-kelgan-sayyoh-sarflayotgan-urtacha-mablag-330-dollarga-etgan>

⁴ O'zbekistonda turizm. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_turizm

⁵ Xorijliklar uchun yangi viza toifalari joriy etiladi. 06.01.2019. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/01/06/viza/>

⁶ O'zbekistonda turizm. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_turizm

⁷ O'zbekistonda turizm sohasi 2017–2023 yillarda: islohotlar qanday natijalarga olib keldi? 16.10.2023. <https://kun.uz/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F10%2F16%2Fozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi>

⁸ Turizm — barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili. 18.10.2023. <https://parliament.gov.uz/articles/1790#!>

⁹ O'zbekistonga 2023-yilda 7 millionga yaqin sayyoh keldi. 21.02.2024. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/21/tourists/>

Xorijiy turistlar tashrifi bo'yicha O'zbekiston pandemiyadan oldingi darajaning 98 foizini tashkil etdi. Jumladan, 2019-yilda O'zbekistonga 6 mln. 748 ming nafar xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 6 mln. 626 ming nafarga yetdi¹⁰. Bu esa mamlakat turizm sohasining tez sur'atlar bilan tiklanayotganini ko'rsatadi.

Har bir xorijiy turistning respublika hududida bevosita sayohat xarajatlaridan tashqari sarflaydigan o'rtacha mablag' summasi 2017-yilda 197 AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 400 AQSh dollariga yetdi va turizm eksporti hajmi 2023-yilning 9 oyida 1,72 mlrd. dollarga yetdi¹¹. Mahalliy (ichki) sayyohlar soni ham 2017-yilga nisbatan 107 foizga o'sib, 14,9 million nafarni¹² tashkil qilmoqda.

Mehmon o'rinlari soni 2017-yildagi 37 mingtadan 3,4 barobarga ko'payib, 128 mingtaga yetdi. Joylashtirish vositalari soni 2017-yildagi 767 tadan 2023-yilda 5,5 mingtaga yetkazildi¹³. 2017-yilda 749 ta turistik tashkilot va turagentlar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 2 ming 404 taga yetdi. Gid-ekskursovodlar soni esa esa 574 tadan 2864 taga yetdi¹⁴.

Respublikaning turizm salohiyati yuqori bo'lgan fuqarolar yig'inlariga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" va "Turizm ovuli" maqomini berish¹⁵ va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilindi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA: Mamlakatimizda birinchi bo'lib Samarqand tumani Konigil qishlog'ida 52 ta hunarmandchilik va dam olish maskanlari mavjud bo'lgan "turizm qishlog'i" tashkil etildi va 200 nafardan ortiq mahalliy aholi ish bilan ta'minlandi¹⁶.

2022-yil davomida Navoiy viloyatining Nurota tumanida Sentob turizm qishlog'i hamda Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi Ertosh-soy va Ovjazsoy qishloqlariga "turizm qishlog'i" maqomi berildi. Ushbu qishloqlarda 90 ta oilaviy mehmon uylari, 20 turdagi xizmatlar tashkil etilishi natijasida 400 ga yaqin qishloq aholisi bandligi ta'minlandi¹⁷.

¹⁰ O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi xalq farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi. 19.06.2024.

<https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7108-o-zbekistonda-turizm-sohasining-rivojlanishi-xalq-farovonligining-yuksalishiga-xizmat-qiladi.html>

¹¹ O'zbekiston 2023-yilda nimalar bilan savdo qildi? 22.01.2024. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/22/trade/>

¹² Ikki yillik pandemiyadan so'ng oyoqqa turgan o'zbek turizmi. Soha qanday tiklanmoqda? 04.02.2024.

<https://daryo.uz/2023/02/04/ozbekistonda-turizm-kecha-va-bugun>

¹³ Xasanova G. Buxoro viloyatida ichki turizmni rivojlantirishni takomillashtirish. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz June 2024 / Volume 5 Issue 6. B. 363.

¹⁴ O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi xalq farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi. 19.06.2024. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7108-o-zbekistonda-turizm-sohasining-rivojlanishi-xalq-farovonligining-yuksalishiga-xizmat-qiladi.html>

¹⁵ O'zbekistonda turistik mahallalar, qishloqlar va ovullar paydo bo'ladi. 13.08.2019.

<https://daryo.uz/2019/08/13/o%CA%BBzbekistonda-turistik-mahallalar-qishloqlar-va-ovullar-paydo-bo%CA%BBladi/>

¹⁶ Raxmonov S., Ochilova M. Turistik destinatsiyalarni rivojlantirish orqali turistik zonalarni takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024-yil, aprel. Maxsus son. B. 599.

¹⁷ Raxmonov S., Ochilova M. Turistik destinatsiyalarni rivojlantirish orqali turistik zonalarni takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024-yil, aprel. Maxsus son. B. 599.

Toshkent viloyatining Angren shahrida Lashkarak va Parkent tumanida Kumushkon, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida G‘elon, Boysun tumani Omonxona qishloqlariga turizm qishlog‘i maqomi berish yuzasidan choralar ko‘rilmog‘da¹⁸.

2021-yilda turizm sohasidagi investitsiya loyihalari doirasida umumiy qiymati 11,4 trln so‘m bo‘lgan mablag‘lar o‘zlashtirilib, 495 ta loyiha amalga oshirildi. Davlat investitsiya dasturi doirasida mahalliy hokimliklar bilan birgalikda umumiy qiymati 1,2 mlrd AQSh dollari bo‘lgan 62 ta loyihada, 562,7 mln dollar investitsiya o‘zlashtirilib, 31 ta loyiha ishga tushirildi¹⁹.

2022-yilda turizm sohasida jami qiymati 22,1 trln so‘mlik 735 ta loyihalar ishga tushirilib, tarmoqda qo‘shimcha 23 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi²⁰. Tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya jalb qilish hamda raqobatbardosh xizmatlarni yo‘lga qo‘yishga berilgan e‘tibor natijasida turizm bozoriga “Hilton”, “Marriott”, “Hyatt”, “Wyndham”, “InterContinental Hotels Group” va “Accor” kabi yetakchi mehmonxona brendlari kirib kelmoqda²¹. Ular nafaqat poytaxt Toshkent, balki, Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlariga ham qiziqish bildirib, o‘z faoliyatlarini tashkil qilmoqda.

Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari rahbarlari kengashining sammiti doirasida Samarqand shahrida 260 gektar maydonda yangi turistik markaz barpo etilib, jahon standartlari darajasidagi 8 ta mehmonxona ishga tushirildi²². Mazkur loyihaga 516 mln dollar qiymatida investitsiya yo‘naltirildi.

Markaziy Osiyo davlatlarining madaniy merosini bir-biriga o‘zaro bog‘liq sifatida targ‘ib qilish bo‘yicha tashabbusiga asosan UNESCO‘ning “Xiva deklaratsiyasi”²³ qabul qilindi.

Islom hamkorlik tashkilotining 2022-yildagi XI sessiyasida Xiva 2024-yil “Islom dunyosining turizm poytaxti”²⁴ deb e‘lon qilindi.

Turkiy davlatlar tashkiloti Turizm vazirlarining yig‘ilishida Qo‘qon shahriga “Ilk turizm poytaxti”²⁵ nomi berildi.

¹⁸ O‘zbekistonda turizm sohasi 2017–2023 yillarda: islohotlar qanday natijalarga olib keldi? 16.10.2023.

<https://zamin.uz/uz/jamiyat/122626-ozbekistonda-turizm-sohasi-20172023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi.html>

¹⁹ O‘zbekistonda ichki sayyohlar soni 15 millionga yetdi. 18.10.2023. <https://xabar.uz/uz/jamiyat/ozbekistonda-ichki-sayyohlar-soni-15-millionga-etdi>

²⁰ Ikramova M. O‘zbekistonda turizm investitsiyalarini rivojlantirish istiqbollari. International scientific journal «Modern science and research» VOLUME 3 / ISSUE 5 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ. B. 1575.

²¹ Ikki yillik pandemiyadan so‘ng oyoqqa turgan o‘zbek turizmi. Soha qanday tiklanmoqda? 04.02.2024. <https://daryo.uz/2023/02/04/ozbekistonda-turizm-kecha-va-bugun>

²² Samarqanddagi ShHT sammiti (2022). [https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqanddagi_ShHT_sammiti_\(2022\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqanddagi_ShHT_sammiti_(2022))

²³ O‘zbekiston sayyohlik salohiyati BMT e‘tiborida. 27.08.2017. <https://oz.sputniknews.uz/20170827/6133452.html>

²⁴ Xiva 2024 yil Islom dunyosining turizm poytaxti deb e‘lon qilindi. 28.06.2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/28/xiva/>

²⁵ Qo‘qon shahri Turkiy kengashning ilk turizm poytaxti deb e‘lon qilindi. 24.06.2021. <https://uzreport.news/society/qoqon-shahri-turkiy-kengashning-ilk-turizm-poytaxti-deb-elon-qilindi>

Ispaniyaning Madrid shahrida o'tkazilgan UNWTO'ning 24-sessiyasida ilk marotaba BMT tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning 25-Bosh assambleyasini 2023-yilda qadimiy Samarqandda o'tkazish to'g'risidagi qarori qabul qilindi²⁶. UNWTO O'zbekistonni eng tez turizm sohasi rivojlanayotgan 20 mamlakat ichida 4-o'rinda e'tirof etdi.

O'zbekiston "Jahon musulmon sayyohlari indeksi" reytingida 32-o'rindan 22-o'ringa ko'tarilib, "eng jozibador" hamda "xavfsizlik va bag'rikenglik darajasi yuqori" bo'lgan 10 ta mamlakat qatoriga kirdi²⁷.

O'zbekistonga xorijiy turistlarni yanada ko'proq jalb qilish maqsadida viza rejimini soddalashtirish chora-tadbirlari, yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish, soha bilan bog'liq loyihalarga investitsiya kiritish, yirik tadbirlarni o'tkazish kabi amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha ham bir qator amaliy choralar ko'rilmogda. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida 15 mln. nafar aholi sayohatga chiqdi va hududlar bo'ylab 21 mln. tashrif uyushtirildi²⁸. Ijtimoiy ko'mak sifatida 1,1 ming nafar imkoniyati cheklangan shaxs va 570 ming nafar yoshlar sayohatga chiqarildi.

2023-yilda turistik xizmatlar eksporti 2 mlrd. 143,5 mln. dollarni tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 1,3 barobar oshganini ko'rsatadi²⁹. Shuningdek, turizm va unga yondosh sohalar yo'nalishida 70 ming nafarga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Bu esa mamlakatda turistlarga har tomonlama qulaylik yaratilganligining natijasidir.

XULOSA: Turizmning rivojlanishi, shuningdek, mamlakatning xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashini ta'minlamoqda. Masalan, "Jahon musulmon sayohati indeksi" (GMTI – 2023) xalqaro ziyorat turizmi reytingida O'zbekiston 140 ta mamlakat ichida 13-o'rinni egalladi³⁰. "Halal In Travel Awards 2023" tadbirida Xiva shahri "Yilning islom merosi turizm manzili" sovrinini³¹ qo'lga kiritdi.

2023-yilda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog'i "Best Tourism Village 2023 Awards" nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi. Bundan tashqari, "Lonely Planet" xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan 2024-yil uchun "O'zbekiston – eng yaxshi sayohat maskani" nominatsiyasi g'olibi bo'lganligi munosabati bilan O'zbekistonga maxsus sertifikat topshirildi³².

²⁶ Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi 16–20-oktabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tadi. 01.06.2023.

<https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/01/unwto/>

²⁷ O'zbekistonning turistik salohiyatini oshirish va uni xorijiy turizm bozorlarida targ'ib qilish yo'lida amalga oshirilgan ishlar.

17.10.2023. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekistonning-turistik-salohiyatini-oshirish-va-uni-xorijiy-turizm-bozorlarida-targib-qilish-yulida-amalga-oshirilgan-ishlar>

²⁸ Sayyohlarga O'zbekistonda bo'lish necha pulga tushmoqda? 18.12.2023. <https://oz.sputniknews.uz/20231218/sayyohlar-ozbekiston-necha-pul-41607769.html>

²⁹ O'zbekistonda 2023 yilda turistik xizmatlar eksporti 2 mlrd dollardan oshdi. 22.06.2024.

<https://kun.uz/news/2024/06/22/ozbekistonda-2023-yilda-turistik-xizmatlar-eksporti-2-mlrd-dollardan-oshdi>

³⁰ O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi xalq farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi. 19.06.2024.

<https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7108-o-zbekistonda-turizm-sohasining-rivojlanishi-xalq-farovonligining-yuksalishiga-xizmat-qiladi.html>

³¹ O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi xalq farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi.

<https://bangkok.mfa.uz/news/35488?language=uz>

³² O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi xalq farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi. 19.06.2024.

<https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7108-o-zbekistonda-turizm-sohasining-rivojlanishi-xalq-farovonligining-yuksalishiga-xizmat-qiladi.html>

O‘zbekistonning 2024-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi davlatlar ro‘yxatiga kiritilishi va “World of Statistics” tomonidan bu haqda e‘lon qilinishi, xorijiy turistlar soni ortishi va turizm eksporti hajmining oshishiga xizmat qiladi³³. Bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro maydonda yanada tanilishiga yordam beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda turizm sohasining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda. Mamlakat turizmini yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va kelajakdagi istiqbollari haqidagi tahlillar ushbu sohaning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida nazarda tutilgan turizmni rivojlantirishga oid vazifalar aholi daromadi oshishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va xalq farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekistonda turizm sohasi 2017–2023 yillarda: islohotlar qanday natijalarga olib keldi? 16.10.2023. <https://kun.uz/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F10%2F16%2Fozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi>
2. O‘zbekistonda turizm. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_turizm
3. O‘zbekistonga kelgan sayyoh sarflayotgan o‘rtacha mablag‘ 330 dollarga yetgan. 22.10.2023. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekistonga-kelgan-sayyoh-sarflayotgan-urtacha-mablag-330-dollariga-etgan>
4. Xorijliklar uchun yangi viza toifalari joriy etiladi. 06.01.2019. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/01/06/viza/>
5. Turizm — barqaror taraqqiyotni ta‘minlashning muhim omili. 18.10.2023. <https://parliament.gov.uz/articles/1790#!>
6. O‘zbekistonga 2023-yilda 7 millionga yaqin sayyoh keldi. 21.02.2024. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/21/tourists/>
7. O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi xalq farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi. 19.06.2024. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7108-o-zbekistonda-turizm-sohasining-rivojlanishi-xalq-farovonligining-yuksalishiga-xizmat-qiladi.html>
8. O‘zbekiston 2023-yilda nimalar bilan savdo qildi? 22.01.2024. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/22/trade/>
9. Ikki yillik pandemiyadan so‘ng oyoqqa turgan o‘zbek turizmi. Soha qanday tiklanmoqda? 04.02.2024. <https://daryo.uz/2023/02/04/ozbekistonda-turizm-kecha-va-bugun>
10. Xasanova G. Buxoro viloyatida ichki turizmni rivojlantirishni takomillashtirish. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz June 2024 / Volume 5 Issue 6. B. 363.
11. O‘zbekistonda turistik mahallalar, qishloqlar va ovullar paydo bo‘ladi. 13.08.2019. <https://daryo.uz/2019/08/13/o%CA%BBzbekistonda-turistik-mahallalar-qishloqlar-va-ovullar-paydo-bo%CA%BBladi/>
12. Raxmonov S., Ochilova M. Turistik destinatsiyalarni rivojlantirish orqali turistik zonalarni takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024-yil, aprel. Maxsus son. B. 599.
13. O‘zbekistonda turizm sohasi 2017–2023 yillarda: islohotlar qanday natijalarga olib keldi? 16.10.2023. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/122626-ozbekistonda-turizm-sohasi-20172023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi.html>
14. O‘zbekistonda ichki sayyohlar soni 15 millionga yetdi. 18.10.2023. <https://xabar.uz/uz/jamiyat/ozbekistonda-ichki-sayyohlar-soni-15-millionga-etdi>
15. Ikramova M. O‘zbekistonda turizm investitsiyalarini rivojlantirish istiqbollari. International scientific journal «Modern science and research» VOLUME 3 / ISSUE 5 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ. B. 1575.
16. Samarqanddagi ShHT sammiti (2022). [https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqanddagi_ShHT_sammiti_\(2022\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqanddagi_ShHT_sammiti_(2022))
17. O‘zbekiston sayyohlik salohiyati BMT e‘tiborida. 27.08.2017. <https://oz.sputniknews.uz/20170827/6133452.html>
18. Xiva 2024 yil Islom dunyosining turizm poytaxti deb e‘lon qilindi. 28.06.2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/28/xiva/>

³³ Атаджанов А. Сайёхлар хавфсизлигини таъминлаш борасидаги йил сарҳисоби. Educational Research in Universal Sciences. Multidisciplinary Scientific Journal. VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 2 | 2024. B. 32.

19. Qo'qon shahri Turkiy kengashning ilk turizm poytaxti deb e'lon qilindi. 24.06.2021. <https://uzreport.news/society/qoqon-shahri-turkiy-kengashning-ilk-turizm-poytaxti-deb-elon-qilindi>
20. Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi 16–20-oktabr kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tadi. 01.06.2023. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/01/unwto/>
21. O‘zbekistonning turistik salohiyatini oshirish va uni xorijiy turizm bozorlarida targ‘ib qilish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar. 17.10.2023. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekistonning-turistik-salohiyatini-oshirish-va-uni-xorijiy-turizm-bozorlarida-targib-qilish-yulida-amalga-oshirilgan-ishlar>
22. Sayyohlarga O‘zbekistonda bo‘lish necha pulga tushmoqda? 18.12.2023. <https://oz.sputniknews.uz/20231218/sayyohlar-ozbekiston-necha-pul-41607769.html>
23. O‘zbekistonda 2023 yilda turistik xizmatlar eksporti 2 mlrd dollardan oshdi. 22.06.2024. <https://kun.uz/news/2024/06/22/ozbekistonda-2023-yilda-turistik-xizmatlar-eksporti-2-mlrd-dollardan-oshdi>
24. O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi xalq farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi. <https://bangkok.mfa.uz/news/35488?language=uz>
25. Атаджанов А. Сайёхлар хавфсизлигини таъминлаш борасидаги йил сарҳисоби. Educational Research in Universal Sciences. Multidisciplinary Scientific Journal. VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 2 | 2024. B. 32.